


## SAMARQAND VILOYATINING TASHQI SAVDO AYLANMASI (2021- yil yanvar-iyun oylari uchun dastlabki ma'lumot)

Mamlakatning tashqi iqtisodiy faoliyati, xususan tashqi savdo sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning pirovard natijasi aholining turmush darajasiga bevosita o'z ta'sirini o'tkazadi.

2021- yil yanvar-iyun oylari yakuni bilan viloyatning tashqi savdo aylanmasi (matnda TSA) 837,3 mln. AQSh dollarini tashkil etib, 2020- yilning mos davriga nisbatan 162,8 mln. AQSh dollariga yoki 24,1 %ga ko'paydi.

TASHQI SAVDO  
AYLANMASI  
VA BALANSI  
(yanvar-iyun  
mln. AQSh  
dollari)



Ma'lumot uchun: O'zbekiston Respublikasi tovarlar tashqi savdosi statistika ko'rsatkichlarini shakllantirishda, Tashqi iqtisodiy faoliyat Tovar nomenklaturasi (keying o'rinlarda TIF TN) bilan birgalikda, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Xalqaro standartlashgan savdo tasniflagichi (keyingi o'rinlarda – XSST) ishlatiladi. Bu o'z navbatida tahliliy maqsadlarda eksport va import qilinadigan tovarlarni 10 ta katta qismga guruhlash uchun imkon beradi. Tovarlarni XSST bo'yicha kodlashtirish, TIF TN va XSST o'rtasida o'tish kalitlari yordamida amalga oshiriladi.



SAMARQAND  
VILOYATI BILAN  
TASHQI SAVDO  
AYLANMASI  
ENG YUQORI  
ULUSHGA EGA  
BO'LGAN  
DAVLATLAR  
(2021 - yil  
yanvar- iyun,  
mln. AQSh  
dollari, ulushi,  
%da)

TSA da eksport hajmi 222,0 mln. AQSh dollariga (47,0 %ga ko'paydi) va import hajmi 615,4 mln. AQSh dollariga (17,6 %ga ko'paydi) yetdi. Hisobot davrida -393,4 mln. AQSh dollari qiymatida passiv tashqi savdo balansi qayd etildi.

Top-10 davlatlar	TSA	Eksport	Import	Ulushi, % da
Rossiya Federatsiyasi	140,4	49,4	91,0	16,8
Xitoy Xalq Respublikasi	126,6	26,0	100,6	15,1
Qozog'iston	99,6	22,6	76,9	11,9
Turkiya	76,1	18,8	57,3	9,1
Yaponiya	40,2	0,0	40,2	4,8
Ukraina	33,9	5,2	28,7	4,0
Tojikiston	27,5	25,2	2,3	3,3
Germaniya	21,8	1,4	20,4	2,6
Sloveniya	19,1	0,0	19,1	2,3
Hindiston	16,4	0,1	16,3	2,0

So'nggi yillarda hukumatimiz tomonidan sanoat tuzilmasini diversifikatsiya qilishda, eksportni qo'llab-quvvatlash, import o'rnini bosuvchi tovar va mahsulotlarni ishlab chiqarishni yanada oshirilishi natijasida, eksport tarkibida sezilarli o'zgarishga erishildi.

Samarqand, jahonning 84 dan ortiq mamlakatlari bilan savdo aloqalarini amalga oshirib kelmoqda. TSA ning nisbatan salmoqli hissasi Rossiya Federatsiyasida (16,8 %), Xitoy Xalq Respublikasida (15,1 %), Qozog'istonda (11,9 %), Turkiyada (9,1 %), Yaponiyada (4,8 %), Ukrainada (4,0 %) va Tojikistonda (3,3 %) qayd etilgan.



Shuningdek, qo'shni davlatlar bilan o'zaro aloqalarni mustahkamlash, mamlakatlarni ijtimoiy-iqtisodiy, savdo-sanoat hamda madaniy sohalardagi aloqalarini rivojlantirish borasida katta ishlar amalga oshirilayotganini ko'rish mumkin.

Xususan, qo'shni davlatlar Tojikiston va Qirg'iz Respublikalari bilan TSA da so'nggi yillarda katta o'zgarishlar kuzatilyapti. Misol uchun, so'nggi uch yilda TSA Tojikiston, Qirg'iz Respublikasi va Turkmaniston bilan tashqi savdo aylanmasi oshgani kuzatilmoqda.

Boshqa davlatlar (qo'shni davlatlardan tashqari) bilan esa, TSA da eng yuqori ulush Xitoy, Rossiya, Turkiya va Yaponiya davlatlari hissasiga to'g'ri kelgan.

Tashqi iqtisodiy faoliyat bo'yicha 30 ta yirik hamkor-davlatlar orasidan 7 ta davlatda faol tashqi savdo balansi kuzatilgan, xususan, Tojikiston (22,8 mln. AQSh dollari), Qirg'iz Respublikasi (14,6 mln. AQSh dollari), Singapur (12,2 mln. AQSh dollari), Afg'oniston (10,6 mln. AQSh dollari), Ozarbayjon (7,2 mln. AQSh dollari) Italia (0,4 mln. AQSh dollari) Belarus Respublikasi (0,2 mln. AQSh dollari) shular jumlasidandir. Qolgan 23 ta yirik hamkor-davlatlar bilan passiv tashqi savdo balansi saqlanib qolmoqda.

SAMARQAND  
VILOYATINING  
YIRIK HAMKOR  
2DAVLATLAR  
BILAN TASHQI  
SAVDO  
AYLANMASI  
DINAMIKASI  
(yanvar- iyun,  
mln. AQSh  
dollari)

Davlatlar	2019- y.	2020- y.	2021- y.
<b>Rossiya Federatsiyasi</b>	<b>128,3</b>	<b>102,8</b>	<b>140,4</b>
Eksport	46,6	28,6	49,4
Import	81,6	74,2	91,0
Saldo	-35,0	-45,6	-41,6
<b>Xitoy Xalq Respublikasi</b>	<b>153,2</b>	<b>141,9</b>	<b>126,6</b>
Eksport	12,0	11,5	26,0
Import	141,2	130,4	100,6
Saldo	-129,2	-118,9	-74,6
<b>Qozog'iston</b>	<b>93,5</b>	<b>71,3</b>	<b>99,6</b>
Eksport	21,7	24,4	22,6
Import	71,8	46,9	76,9
Saldo	-50,1	-22,5	-54,3
<b>Turkiya</b>	<b>91,7</b>	<b>63,2</b>	<b>76,1</b>
Eksport	15,5	13,4	18,8
Import	76,2	49,8	57,3
Saldo	-60,6	-36,5	-38,5
<b>Yaponiya</b>	<b>35,8</b>	<b>37,3</b>	<b>40,2</b>
Eksport	2,1	0,1	0,0
Import	33,7	37,2	40,2
Saldo	-31,6	-37,1	-40,2
<b>Ukraina</b>	<b>16,5</b>	<b>15,1</b>	<b>33,9</b>
Eksport	8,3	3,1	5,2
Import	8,2	12,0	28,7
Saldo	0,1	-8,9	-23,5
<b>Tojikiston</b>	<b>7,2</b>	<b>15,1</b>	<b>27,5</b>
Eksport	6,1	14,3	25,2
Import	1,1	0,8	2,3
Saldo	5,0	13,5	22,8




SAMARQAND  
VILOYATINING  
YIRIK HAMKOR  
DAVLATLAR  
BILAN TASHQI  
SAVDO  
AYLANMASI  
DINAMIKASI  
(yanvar- iyun,  
mln. AQSh  
dollari)

Davlatlar	2019- y.	2020- y.	2021- y.
<b>Germaniya</b>	<b>49,2</b>	<b>14,7</b>	<b>21,8</b>
Eksport	1,5	0,6	1,4
Import	47,7	14,1	20,4
Saldo	-46,1	-13,4	-19,1
<b>Sloveniya</b>	<b>6,8</b>	<b>17,8</b>	<b>19,1</b>
Eksport	0,0	0,0	0,0
Import	6,8	17,8	19,1
Saldo	-6,8	-17,8	-19,1
<b>Hindiston</b>	<b>11,0</b>	<b>7,3</b>	<b>16,4</b>
Eksport	0,1	0,2	0,1
Import	11,0	7,1	16,3
Saldo	-11,0	-6,9	-16,2
<b>Eron</b>	<b>19,6</b>	<b>9,6</b>	<b>15,6</b>
Eksport	10,8	1,0	2,0
Import	8,7	8,6	13,6
Saldo	2,1	-7,6	-11,7
<b>Qirg'iz Respublikasi</b>	<b>5,6</b>	<b>10,8</b>	<b>15,5</b>
Eksport	5,0	9,7	15,1
Import	0,6	1,1	0,4
Saldo	4,4	8,5	14,6
<b>Vengrya</b>	<b>6,0</b>	<b>12,4</b>	<b>13,4</b>
Eksport	0,2	0,1	0,1
Import	5,8	12,3	13,3
Saldo	-5,7	-12,3	-13,3
<b>Singapur</b>	<b>1,7</b>	<b>4,4</b>	<b>12,8</b>
Eksport	1,6	4,1	12,5
Import	0,2	0,3	0,3
Saldo	-1,4	-3,8	-12,2



Mamlakatimizda tashqi savdoni qo'llab-quvvatlash hamda MDH davlatlari bilan ushbu sohadagi hamkorlikni yanada mustahkamlash bo'yicha olib borilayotgan chora-tadbirlar natijasida, 2021- yil yanvar-iyun oylarida, viloyat tashqi savdo aylanmasida MDH davlatlarining ulushi 41,3 %ni tashkil etib, tashqi savdo aylanmasidagi 2020- yilning yanvar-iyuniga nisbatan ulushi 5,8 % ga oshgan.

SAMARQAND VILOYATINING TASHQI SAVDO AYLANMASIDA MDH MAMLAKATLARI VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARNING HAJMLARI DINAMIKASI (yanvar- iyun, mln. AQSh dollari, ulushi, %da)



Aksincha boshqa xorijiy davlatlarning tashqi savdo aylanmasi esa 2021- yil yanvar-iyun oylarida 2020- yilning shu davriga nisbatan 5,8ga kamaydi va jami tashqi savdo aylanmasidagi ulushi 58,7 %ni tashkil etdi.

SAMARQAND  
VILOYATI  
SHAXAR VA  
TUMANLARNING  
TASHQI SAVDO  
AYLANMASI  
(2021- yil  
yanvar- iyun,  
mln. AQSh  
dollari,  
ulushi, %da)


Shahar va tumanlar	Tashqi savdo aylanmasi	Eksport	Import	Tashqi savdo aylanmasi ulushi, %da
<b>Jami</b>	<b>837,3</b>	<b>222,0</b>	<b>615,4</b>	<b>100,0</b>
Samarqand sh.	401,0	74,5	326,3	47,9
Kattaqo'rg'on sh.	12,2	4,0	8,2	1,5
<i>Tumanlar:</i>				
Bulung'ur	10,4	6,8	3,6	1,2
Jomboy	80,3	20,8	59,5	9,6
Ishtixon	7,0	4,1	2,9	0,8
Kattaqo'rg'on	11,8	7,2	4,6	1,4
Narpay	10,3	8,1	2,2	1,2
Nurobod	18,3	0,1	18,2	2,2
Oqdaryo	18,9	8,2	10,7	2,3
Payariq	7,7	5,0	2,7	0,9
Pastdarg'om	20,3	8,2	12,1	2,4
Paxtachi	14,1	6,2	7,8	1,7
Samarqand	85,7	27,2	58,5	10,2
Toyloq	58,2	7,9	50,3	7,0
Urgut	72,9	27,6	45,3	8,7
Qo'shrabot	2,5	1,1	1,4	0,3

Viloyat tashqi savdo aylanmasining eng yuqori o'rinlarida Samarqand shahri (401,0 mln. AQSH dollari), hamda Samarqand tumani (85,7 mln. AQSH dollari), shuningdek, Jomboy (80,3 mln. AQSH dollari) Urgut (72,9 mln. AQSH dollari), va Toyloq (58,2 mln. AQSH dollari) tumanlarini ko'rishimiz mumkin.

## SAMARQAND VILOYATINING EKSPORTI (2021- yil yanvar-iyun)

Joriy yilning yanvar-iyun oylarida viloyatning eksportyorlari soni 423 tani tashkil etib, ular tomonidan 222,0 mln. AQSh dollari (qimmatbaho metallar eksportidan tashqari) qiymatidagi (2020- yilning mos davriga nisbatan 47,0 % ga ko'paydi) tovar va xizmatlar eksport qilinishi ta'minlandi.

Eksport tarkibida tovarlar ulushi 95,6 %ni tashkil etib, ular asosan oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (31,9 %), material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari (30,0%), Mashinalar va transport asbob-uskunolari (11,6 %), turli xil tayyor buyumlar (9,7 %) hissasiga to'g'ri kelmoqda.



XSST  
BO'YICHA  
EKSPORT  
TARKIBI  
(2021-yil  
yanvar-iyun,  
ulushi, %da)

■ Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar – 31,9 %	■ Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar – 4,5 %
■ Ichimliklar va tamaki – 1,0 %	■ Sanoat tovarlari – 30,0 %
■ Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari – 6,6 %	■ Mashinalar va transport asbob-uskunolari – 11,6 %
■ Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar – 0,2 %	■ Turli xil tayyor buyumlar – 9,7 %
■ Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar – 0,0 %	■ Xizmatlar – 4,4 %



**MDH  
VA BOSHQA  
XORIJIY  
DAVLATLARGA  
EKSPORT TARKIBI  
(2021- yil  
yanvar- iyun)**

XSST tarkibi	Mln. AQSh dollari			Umumiy hajmga nisbatan, %da		
	Jami	MDH davlatlari	Boshqa davlatlar	Jami	MDH davlatlari	
<b>Jami eksport</b>	<b>222,0</b>	<b>131,1</b>	<b>90,8</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>
shu jumladan:						
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	70,8	50,6	20,2	31,9	38,6	22,2
Ichimliklar va tamaki	2,3	2,2	0,0	1,0	1,7	0,0
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	14,7	8,8	6,0	6,6	6,7	6,6
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	0,5	0,1	0,4	0,2	0,1	0,4
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	0,1	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar	10,1	6,3	3,7	4,5	4,8	4,1
Asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari	66,6	27,4	39,3	30,0	20,9	43,3
Mashinalar va transport asbob-uskunalari	25,6	10,2	15,4	11,6	7,8	17,0
Turli xil tayyor buyumlar	21,6	19,9	1,6	9,7	15,2	1,8
Xizmatlar	9,7	5,6	4,1	4,4	4,2	4,5

MDH mamlakatlari va boshqa mamlakatlarga eksportning yoʻnalishi boʻyicha farqlanishlar mavjudligi kuzatilmoqda. Xususan, MDH mamlakatlariga eksportning asosiy qismi oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar hissasiga toʻgʻri kelmoqda, keyingi oʻrinlarda eksport hajmi boʻyicha asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari hamda turli xil tayyor buyumlar xissasiga toʻgʻri kelmoqda.

**MDH  
VA BOSHQA  
XORIJIY  
DAVLATLARGA  
TOVAR  
VA XIZMATLAR  
EKSPORTINING  
OʻSISH  
SURʻATLARI  
(2021 - yil  
yanvar- iyun)**

XSST tarkibi	2020- yilning yanvar-iyuniga nisbatan, %da		
	Jami	MDH davlatlari	Boshqa davlatlar
<b>Jami</b>	<b>147,0</b>	<b>141,6</b>	<b>155,6</b>
shu jumladan:			
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	105,2	124,5	75,9
Ichimliklar va tamaki	3,8 m.	4,2 m.	57,0
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilgʻidan tashqari	2,4 m.	2,9 m.	196,3
Mineral yoqilgʻi, yogʻlash moylari va shunga oʻxshash materiallar	-	-	-
Hayvon va oʻsimliklar moylari (yogʻlari), yogʻlar va mumlar	1,3	1,5	1,1
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga oʻxshash mahsulotlar	6,0 m.	4,7 m.	11,2 m.
Asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari	2,3 m.	2,2 m.	2,3 m.
Mashinalar va transport asbob-uskunolari	150,6	68,9	7,0 m.
Turli xil tayyor buyumlar	131,2	138,5	79,7
Xizmatlar	134,6	182,5	99,4

2021- yil yanvar-iyun oylarida eksport qilingan tovarlar va xizmatlar tarkibining tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, tovarlar va xizmatlar tarkibida sezilarli o'zgarishlar qayd etilmadi, biroq shuni ta'kidlash joizki, 2020- yilning yanvar- iyuniga nisbatan, asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari hamda kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlarda, o'sish kuzatildi.

**EKSPORT TARKIBI  
DINAMIKASI  
(yanvar- iyun,  
%da)**

XSST tarkibi	2019- y.	2020- y.	2021- y.
<b>Jami</b>	<b>100</b>	<b>100</b>	<b>100</b>
shu jumladan:			
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	51,5	44,5	31,9
Ichimliklar va tamaki	0,6	0,4	1,0
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	7,2	4,0	6,6
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	2,0	0,0	0,2
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	0,0	3,5	0,0
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar	0,6	1,1	4,5
Asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari	12,8	19,5	30,0
Mashinalar va transport asbob-uskunalari	8,5	11,3	11,6
Turli xil tayyor buyumlar	7,9	10,9	9,7
Xizmatlar	8,9	4,8	4,4

	XSST bo'limi nomi	Mln. AQSh dollari	2020- yilning mos davriga nisbatan, % da
<b>XSST BO'LIMI BO'YICHA AYRIM MAHSULOTLAR EKSPORTI TARKIBI (2021- yil yanvar- iyun)</b>	<b>Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar</b>		
	Sabzavotlar va mevalar	48,4	91,1
	Hayvonlar uchun ozuqalar (maydalanmagan donlardan tashqari)	14,9	2,0 m
	Sut mahsulotlari va parranda tuxumlari	3,4	151,9
	Kofe, choy, kakao, ziravorlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	1,8	130,7
	Tirik hayvonlar, 03 bo'limga kiritilgan hayvonlardan Tashqari	1,4	135,1
	<b>Ichimliklar va tamaki</b>		
	Ichimliklar	2,3	4,0 m.
	Tamaki va tamaki mahsulotlari	0,0	0,0
	<b>Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari</b>		
	To'qimachilik tolalari va ularning chiqindilari	10,3	2,3 m.
	Moy olinadigan urug'lar va mevalar	3,9	3,4 m.
	Hayvonlar va o'simliklardan kelib chiqqan xomashyo materiallari	0,2	82,8
	<b>Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar</b>		
	O'simlik moylari va yog'lari (xom, tozalangan yoki fraksiyalangan)	0,1	1,3
	<b>Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar</b>		
	Birlamchi shakldagi plastmassalar	7,6	56,9 m.
	Boshqa joyda tasniflanmagan kimyoviy materiallar va mahsulotlar	0,9	156,0
	Tibbiyot va farmatsevtika mahsulotlari	0,9	152,6
	Bo'yoqlar va bo'yovchi moddalar	0,5	5,2 m.


**XSST BO'LIMI  
BO'YICHA  
AYRIM  
MAHSULOTLAR  
EKSPORTI  
TARKIBI  
(2021- yil  
yanvar- iyun)**

Asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari		
To'qimachilik yigirilgan ipi, matolar, tayyor buyumlar va shunga o'xshash mahsulotlar	53,2	2,4 m.
Po'lat va metal	5,0	129,2 m.
Ruda bo'lmagan qazilmalardan tayyorlangan maxsulotlar, boshqa joyda tasniflanmagan	3,9	2,3 m.
Po'lat va metal Metallardan tayyorlangan buyumlar	3,4	83,0
Mashinalar va transport asbob-uskunolari		
Avtomobillar	23,0	145,2
Aniq sohalar uchun maxsus mo'ljallangan mashinalar Metallarni qayta ishlash mashinalari	1,3	6,4 m.
Elektr mashinalari, apparatlar, asboblar va ularning ehtiyot qismlari	0,8	2,4 m.
Sanoat uchun maxsus bo'lmagan mashinalar va ularning detallari	0,4	2 m.
Energiya generatori mashinalari va asbob uskunalar	0,2	47,2
Turli xil tayyor buyumlar		
Kiyim-kechaklar va ularning anjomlari	16,1	150,8
Poyabzal	5,1	118,4
Har xil tayyor buyumlar, boshqa joyda tasniflanmagan	0,2	86,9
Xizmatlar		
Transport xizmatlari	5,9	2 m.
Qurilish xizmatlari	1,5	53,5
Moliyaviy xizmatlari	1,2	155,5

O'tgan yilga nisbatan MDH mamlakatlariga eksport hajmi kamaydi va ularning jami eksportdagi ulushi 2020- yil yanvar-iyundagi 61,3 %dan 2021- yil yanvar-iyunida 59,1 %ga tushdi. Mos ravishda boshqa mamlakatlarning jami eksportdagi ulushi 40,9 %ni tashkil etdi.



**MDH  
VA BOSHQA  
DAVLATLARGA  
TOVAR  
VA XIZMATLAR  
EKSPORTI  
HAJMLARI  
DINAMIKASI  
(yanvar- iyun,  
mln. AQSh  
dollari,  
ulushi, %da)**



2021- yilning yanvar-iyun oylari yakunida tovar va xizmatlar eksporti bo'yicha asosiy hamkor davlatlar tarkibida Rossiya Federatsiyasi (eksport umumiy hajmining 22,3 %), Xitoy Xalq Respublikasi (11,7 %), Tojikiston (11,4 %), Qozog'iston (10,2 %), Turkiya (8,5 %), Qirg'iz Respublikasi (6,8 %) va Singapur (5,6 %) davlatlari saqlanib qolmoqda hamda ularning jami eksportdagi ulushi 76,5 foizni tashkil etmoqda.

Tovarlar va xizmatlar eksporti bo'yicha asosiy hamkor davlatlardan Rossiya Federatsiyasi eksportdagi ulushi bo'yicha peshqadam bo'lib kelmoqda.

Hamkor mamlakatlarning tovarlar va xizmatlar eksporti bo'yicha geografiyasi 2020- yilning mos davriga nisbatan 62 ta davlatdan 65 ta davlatga ko'paygan.

VILOYAT  
EKSPORTIDA  
ASOSIY  
HAMKOR  
DAVLATLAR-  
NING ULUSHI  
(2021 - yil  
yanvar- iyun,  
%da)



SAMARQAND  
VILOYATINING  
ASOSIY  
HAMKOR  
DAVLATLARGA  
AMALGA  
OSHIRGAN  
EKSPORTI HAJMI  
VA O'SISH  
SUR`ATLARI  
(yanvar- iyun)

Davlatlar	Mln.AQSH dollari		O'zgarish sur'ati, %da		O'rni	
	2020- y.	2021- y.	2020- y.	2021- y.	2020- y.	2021- y.
Rossiya Federatsiyasi	28,6	49,4	61,3	172,7	1	1
Xitoy Xalq Respublikasi	11,5	26,0	96,0	2,3 m.	5	2
Tojikiston	14,3	25,2	2,3 m.	176,0	3	3
Qozog'iston	24,4	22,6	112,3	92,9	2	4
Turkiya	13,4	18,8	86,2	140,6	4	5
Qirg'iz Respublikasi	9,7	15,1	193,5	155,3	6	6
Singapur	4,1	12,5	2,6 m.	3,1 m.	9	7
Afg'oniston	7,5	10,6	76,8	141,5	7	8
Ozarbajjon	5,5	7,5	107,5	136,9	8	9
Ukraina	3,1	5,2	37,6	166,2	13	10
Belarus Respublikasi	4,0	4,1	96,5	100,8	10	11
Italiya	0,01	3,3	-	31,1 m.	50	12
BAA	1,9	2,2	140,3	113,1	16	13
Eron	1,0	2,0	9,3	194,5	20	14
Saudiya Arabistoni	0,3	1,8	71,7	5,4 m.	25	16
Turkmaniston	2,7	1,6	102,8	59,2	14	17
AQSH	1,6	1,5	104,1	96,1	18	18
Germaniya	0,6	1,4	40,9	2,1 m.	22	19
Gruziya	1,8	1,3	131,5	68,6	17	20
Polsha	0,9	1,2	37,7	138,4	21	21

Ushbu mamlakatlarga eksport qilinayotgan tovarlar tarkibiga oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar, asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari hamda turli xil tayyor buyumlar kiradi.

XSST tarkibi	Rossiya Federatsiyasi		Xitoy Xalq Respublikasi		Tojikiston		Qozog'iston	
	2020-y.	2021-y.	2020-y.	2021-y.	2020-y.	2021-y.	2020-y.	2021-y.
<b>Jami eksport</b>	<b>57,2</b>	<b>98,8</b>	<b>23,0</b>	<b>52,0</b>	<b>28,6</b>	<b>50,4</b>	<b>48,7</b>	<b>45,3</b>
shu jumladan:								
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	12,8	19,6	7,5	6,0	9,4	17,8	8,1	5,3
Ichimliklar va tamaki	0,4	0,3	0,0	0,0	0,0	0,0	0,1	2,0
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	1,3	4,3	1,7	1,7	0,0	0,2	0,9	1,4
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	0,0	0,1	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	0,0	0,0	0,0	0,0	1,7	0,0	0,0	0,0
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar	0,0	2,9	0,0	0,0	0,5	1,0	0,6	0,9
Asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari	2,3	5,0	2,2	18,3	1,3	4,2	2,6	5,1
Mashinalar va transport asbob-uskunolari	0,1	0,3	0,0	0,0	0,6	0,9	10,2	5,9
Turli xil tayyor buyumlar	8,7	11,8	0,0	0,0	0,9	0,9	1,9	2,1
Xizmatlar	3,0	5,2	0,0	0,0	0,0	0,1	0,0	0,1

**VILOYATNING  
AYRIM  
DAVLATLAR  
BILAN EKSPORT  
TARKIBI  
(2021- yil  
yanvar- iyun,  
mln. AQSh  
dollarida)**



**MEVA-  
SABZAVOT  
MAHSULOT-  
LARI EKSPORTI**

Oziq-ovqat mahsulotlarining asosiy qismi bo'lgan 43,9 mln. AQSh dollar qiymatli 61,6 ming tonnadan ziyod meva-sabzavot eksport qilingan. Bunda 2020- yilning mos davriga nisbatan 6,7 mln. AQSh dollariga pastlashish kuzatilib, 86,8 %ga kamaydi. Meva-sabzavot mahsulotlarining eksport tarkibiga qaralsa, 15,2 mln. AQSh dollariga teng 34,5 ming tonna sabzavot, shuningdek 12,9 mln. AQSh dollari qiymatidagi 11,7 ming tonna meva va rezavorlar eksport qilindi.

Hukumat tomonidan qishloq xo'jaligi va bog'dorchilikni rivojlantirishga katta e'tibor qaratilayotgani bois, eksport qilinayotgan meva va sabzavotlarning ulushi 19,8 %ni tashkil etdi.

**MEVA-  
SABZAVOT  
MAHSULOT-  
LARI EKSPORTI  
(2021- yil  
yanvar- iyun,  
mln. AQSh  
dollari)**



Meva-sabzavot mahsulotlarining asosiy eksport bozorlari Rossiya Federatsiyasi (26,8 %), Xitoy xalq Respublikasi (13,8 %), Qozog'iston (10,5 %) va Turkiya (8,5 %) davlatlari hissasiga to'g'ri kelgan.

Davlatlar	2020- yil			2021- yil		
	ming tonna	mln. AQSh dollari	ulushi*, % da	ming tonna	mln. AQSh dollari	ulushi*, % da
Rossiya Federatsiyasi	11,5	10,8	21,4	12,8	11,8	26,8
Xitoy Xalq Respublikasi	8,8	7,4	14,6	8,3	6,1	13,8
Qozog'iston	16,2	6,9	13,5	18,1	4,6	10,5
Turkiya	3,7	4,3	8,5	3,4	3,7	8,5
Ozarbayjon	1,4	1,7	3,4	2,9	3,0	6,9
Belarus Respublikasi	4,1	3,8	7,5	3,9	2,8	6,4
Ukraina	3,3	2,5	5,0	3,5	2,4	5,4
Eron	1,0	0,8	1,5	1,6	1,2	2,8
BAA	0,5	0,7	1,5	0,8	1,2	2,7
Germaniya	0,2	0,6	1,2	0,3	1,1	2,6
AQSH	0,5	1,4	2,7	0,3	1,1	2,5
Iroq	10,9	2,4	4,8	1,0	0,8	1,9
Gruziya	2,1	1,6	3,3	1,0	0,8	1,7
Turkmaniston	6,3	1,5	3,0	1,3	0,7	1,6
Latviya	0,6	0,5	1,0	0,4	0,4	0,9
Polsha	0,2	0,2	0,5	0,3	0,3	0,8
Saudiya Arabistoni	0,2	0,3	0,7	0,2	0,2	0,5

MEVA -  
SABZAVOT  
MAHSULOT-  
LARINING  
EKSPORT  
GEOGRAFIYASI  
(yanvar- iyun)

\*-qiymat ifodasidan



**SAMARQAND  
VILOYATI  
SHAHAR VA  
TUMANLARIDA  
AMALGA  
OSHIRILGAN  
EKSPORT HAJMI  
(yanvar- iyun,  
mln. AQSh  
dollari)**

Hudud nomi	2020- yil yanvar- iyun	2021- yil yanvar- iyun	Jamiga nisbatan ulushi, %da	o'zgarish sur'ati, %da
<b>Samarqand viloyati</b>	<b>151,0</b>	<b>222,0</b>	<b>100</b>	<b>147,0</b>
<i>shaharlar</i>				
Samarqand	43,9	74,5	33,6	169,7
Kattaqo'rg'on	4,5	4,0	1,8	88,1
<i>tumanlar</i>				
Bulung'ur	4,5	6,8	3,1	149,6
Jomboy	15,1	20,8	9,4	137,4
Ishtixon	1,7	4,1	1,9	2,5 m.
Kattaqo'rg'on	2,7	7,2	3,2	2,7 m.
Narpay	2,8	8,1	3,7	3 m.
Nurobod	0,9	0,1	0,1	12,9
Oqdaryo	9,7	8,2	3,7	84,6
Payariq	5,0	5,0	2,2	97,9
Pastdarg'om	5,8	8,2	3,7	140,9
Paxtachi	1,1	6,2	2,8	5,8 m.
Samarqand	14,9	27,2	12,2	182,5
Toyloq	8,5	7,9	3,6	93,2
Urgut	20,8	27,6	12,5	132,7
Qo'shrabot	0,5	1,1	0,5	2,2 m.

**TO'QIMACHILIK  
MAHSULOTLARI  
EKSPORTI**

To'qimachilik mahsulotlari eksporti hajmining oshishi bevosita paxta xomashyosi o'rniga tayyor mahsulot ishlab chiqarish va qo'shimcha qiymat yaratish maqsadida amalga oshirilgan islohotlarning natijasi ekanini ko'rish mumkin. Jumladan, joriy yilda 69,0 mln. AQSh dollarlik to'qimachilik mahsulotlari eksporti amalga oshirilib, umumiy eksportning 31,1 %ini tashkil etdi va o'tgan yilga nisbatan 98,1 %ga o'sdi.

Eksport qilingan to'qimachilik mahsulotlari tarkibida paxtadan yigirilgan ip (40,3 %), gilamlar (22,3 %), va tayyor trikotaj tikuvchilik kiyimlari (21,4 %) asosiy ulushni egallagan. Yil boshidan 109 turdagi to'qimachilik mahsulotlari dunyoning 26 ta davlatiga eksport qilindi.

**TO'QIMACHILIK  
MAHSULOTLARI  
EKSPORTI  
DINAMIKASI  
(yanvar- iyun,  
mln. AQSh  
dollari)**

Tovar nomi	2019- y.	2020- y.	2021- y.
Paxtadan yigirilgan ip	2,6	7,8	27,8
Gilamlar	12,7	9,5	15,4
Tayyor trikotaj va tikuvchilik kiyimlari	11,9	10,4	14,8
Ipak va ipak mahsulotlari	2,8	2,8	3,7
Paxtadan gazlamalar	0,0	2,8	0,5
Boshqa to'qimachilik mahsulotlari	1,0	1,5	6,8



Mamlakatimizning to'qimachilik sanoatini diversifikatsiya qilish va tayyor mahsulotlar eksportini rag'batlantirish borasidagi amaliy ishlari natijasida, viloyatimizning ushbu sohadagi salohiyati oshib bormoqda.

To'qimachilik mahsulotlarining eng katta ulushi Xitoy Xalq Respublikasi (18,8 mln. AQSh dollari – 27,2 %) Rossiya Federatsiyasi (15,3 mln. AQSh dollari – 22,2 %), va Turkiya (9,5 mln. AQSh dollari – 13,8 %) davlatlari hissasiga to'g'ri keldi.


**DAVLATLAR  
KESIMIDA  
TO'QIMACHILIK  
MAHSULOTLARI  
EKSPORTI  
DINAMIKASI  
(yanvar- iyun,  
mln. AQSh  
dollari)**

Davlatlar	2019- y.	2020- y.	2021- y.
Xitoy Xalq Respublikasi	1,2	3,5	18,8
Rossiya Federatsiyasi	12,7	10,6	15,3
Turkiya	2,6	6,1	9,5
Qirg'iz Respublikasi	3,5	3,6	8,2
Ozarbayjon	2,4	2,6	3,6
Italiya	0,0	0,0	2,7
Afg'oniston	2,1	1,2	2,4
Saudiya Arabistoni	0,0	0,0	1,5
Qozog'iston	1,8	1,6	1,3
BAA	0,5	0,0	0,9
Polsha	1,3	0,6	0,9
Eron	1,6	0,2	0,7
Ukraina	0,2	0,2	0,6
Vetnam	0,0	0,4	0,6
Isroil	0,2	0,2	0,5
Turkmaniston	0,2	0,2	0,4
Tojikiston	0,4	0,4	0,3

## SAMARQAND VILOYATINING IMPORTI (2021- yil yanvar-iyun)

2021- yil yanvar-iyun oylarida import hajmi 615,4 mln. AQSh dollarini va 2020- yilning mos davriga nisbatan 117,6 %ni tashkil etdi.

Import tarkibida eng katta ulush, mashinalar va transport asbob-uskunalari (31,2 %), kimyoviy vositalar (29,1 %) hamda asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari (18,1 %) hisobiga to'g'ri keldi.



XSST BO'LIMI  
BO'YICHA  
IMPORT  
TARKIBI  
(2021- yil  
yanvar- iyun,  
ulushi, %da)

 Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar – 9,8 %	 Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar – 29,1 %
 Ichimliklar va tamaki – 0,0 %	 Sanoat tovarlari – 18,1 %
 Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari – 4,8 %	 Mashinalar va transport asbob-uskunalari – 31,2 %
 Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar – 2,0 %	 Turli xil tayyor buyumlar – 2,8 %
 Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar – 2,1 %	 Xizmatlar – 0,1 %

Tovar va xizmatlar importi dinamikasi tahliliga ko'ra, 2021- yilning yanvar-iyunida import qilingan tovarlar hajmi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 92,4 mln. AQSh dollariga ko'paydi va 614,5 mln. AQSh dollarini tashkil etdi. Xizmatlar importi esa 0,6 mln. AQSh dollariga yetdi.

	XSST tarkibi	Mln. AQSh dollari			Umumiy hajmga nisbatan, % da			
		Jami	MDH davlatlari	Boshqa davlatlar	Jami	MDH davlatlari	Boshqa davlatlar	
<b>MDH VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLAR DAN IMPORT TARKIBI (2021-yil yanvar-iyun)</b>	<b>Jami import</b>	<b>615,4</b>	<b>214,4</b>	<b>401,0</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>	
	shu jumladan:							
	Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	60,3	36,4	23,8	9,8	17,0	5,9	
	Ichimliklar va tamaki	0,1	0,1	0,0	0,0	0,0	0,0	
	Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	29,4	22,4	6,9	4,8	10,5	1,7	
	Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	12,1	11,7	0,4	2,0	5,4	0,1	
	Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	13,1	12,9	0,2	2,1	6,0	0,1	
	Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar	179,0	50,0	129,0	29,1	23,3	32,2	
	Asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari	111,4	55,8	55,6	18,1	26,0	13,9	
	Mashinalar va transport asbob-uskunalari	192,0	22,0	170,0	31,2	10,3	42,4	
	Turli xil tayyor buyumlar	17,2	2,6	14,5	2,8	1,2	3,6	
	Xizmatlar	0,9	0,4	0,5	0,1	0,2	0,1	
	<p>Importning eng katta ulushi, jumladan, asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari (26,0 %), kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar (23,3 %), Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (17,0 %) MDH mamlakatlariga to'g'ri keladi, boshqa xorijiy mamlakatlarga esa eng katta ulush mashinalar va transport asbob-uskunalari (42,4 %) va kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar (32,2 %) hissasiga to'g'ri keladi.</p>							



**MDH VA  
BOSHQA  
XORIJIY  
DAVLATLARDAN  
IMPORTNING  
O'SISH  
SUR'ATLARI  
(2021- yil  
yanvar- iyun)**

XSST tarkibi	2020- yil yanvar-iyuniga nisbatan, %da		
	Jami	MDH davlatlari	Boshqa davlatlar
<b>Jami</b>	<b>615,4</b>	<b>214,4</b>	<b>401,0</b>
<b>shu jumladan:</b>			
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	60,3	36,4	23,8
Ichimliklar va tamaki	0,1	0,1	0,0
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	29,4	22,4	6,9
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	12,1	11,7	0,4
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	13,1	12,9	0,2
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar	179,0	50,0	129,0
Asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari	111,4	55,8	55,6
Mashinalar va transport asbob-uskunalari	192,0	22,0	170,0
Turli xil tayyor buyumlar	17,2	2,6	14,5
Xizmatlar	0,9	0,4	0,5

Joriy davrda import qilingan tovarlar va xizmatlar tarkibi tahlili shuni ko'rsatdiki, 2019- yilning mos davriga nisbatan kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar ulushi 15,6 %dan 29,1 % gacha o'sdi, ammo mashinalar va transport asbob-uskunalari 42,6 %dan 31,2 %ga, asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari, importining ulushi esa 20,7 %dan 18,1 %ga kamaydi.



**IMPORT TARKIBI  
DINAMIKASI  
(2021- yil  
yanvar- iyun,  
ulushi, %da)**

XSST tarkibi	2019- y.	2020- y.	2021- y.
<b>Jami</b>	<b>100</b>	<b>100</b>	<b>100</b>
<b>shu jumladan:</b>			
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	8,6	7,0	9,8
Ichimliklar va tamaki	0,0	0,0	0,0
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	7,0	4,9	4,8
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	0,5	1,9	2,0
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	1,1	1,4	2,1
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar	15,6	28,0	29,1
Asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari	20,7	19,1	18,1
Mashinalar va transport asbob-uskunalari	42,6	34,4	31,2
Turli xil tayyor buyumlar	3,4	3,0	2,8
Xizmatlar	0,4	0,3	0,1

**XSTT BO'YICHA  
IMPORT  
QILINGAN  
AYRIM TURDAGI  
MAHSULOTLAR  
TARKIBI  
(2021- yil  
yanvar-iyun  
2020- yil  
yanvar- iyuniga  
nisbatan)**

Mahsulot nomi	Mln. AQSh dollari	o'zgarish sura'tlari, % da
<b>Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar</b>		
Donli ekinlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	20,1	176,9
Hayvonlar uchun ozuqalar (maydalanmagan donlardan tashqari)	17,6	124,7
Sabzavotlar va mevalar	9,1	3,3 m.
Trik hayvonlar	4,9	162,9
Go'sht va go'sht mahsulotlari	3,7	2,7 m.
<b>Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari</b>		
Moy olinadigan urug'lar va mevalar	14,0	166,5
Probka va yog'och-taxtalar	6,4	90,0
Hayvonlar va o'simliklardan kelib chiqqan xomashyo materiallari	2,8	60,0
Tabiiy kauchuk	3,0	112,6
O'g'itlar uchun xomashyo va mineral xomashyo	2,2	160,3
<b>Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar</b>		
Neft va neft mahsulotlari va shunga o'xshash materiallar	11,1	115,2
Ko'mir, koks va briketlar	1,0	4,2 m.


**XSTT BO'YICHA  
IMPORT  
QILINGAN  
AYRIM TURDAGI  
MAHSULOTLAR  
TARKIBI  
(2021 - yil  
yanvar-iyun  
2020- yil  
yanvar- iyuniga  
nisbatan)**

Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	Mln. AQSh dollari	o'zgarish sura'tlari, % da
Qayta ishlangan hayvon va o'simlik moylari va yog'lari	12,9	183,3
O'simlik yog'lari	0,2	58,2
<b>Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar</b>		
Tibbiyot va farmatsevtika mahsulotlari	134,4	124,1
Birlamchi shakldagi plastmassalar	23,4	120,7
Boshqa joyda tasniflanmagan kimyoviy materiallar va mahsulotlar	8,0	115,8
Bo'yaydigan va terini oshlovchi moddalar va bo'yoqlar	4,0	109,7
Birlamchi shakldagi bo'lmagan plastmassalar	3,1	2,3 m.
<b>Asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari</b>		
Cho'yan va po'lat	53,1	104,5
To'qimachilik yigirilgan ipi, matolar, tayyor buyumlar va shunga o'xshash mahsulotlar	24,9	129,8
Rezina buyumlar, boshqa joyda tasniflanmagan	8,5	79,0
Metaldan tayyorlangan buyumlar	7,3	114,2
Ruda bo'lmagan qazilmalardan tayyorlangan mahsulotlar	6,3	162,0
<b>Mashinalar va transport asbob-uskunolari</b>		
Avtomobillar	90,6	136,7
Aniq sohalar uchun maxsus mo'ljallangan mashinalar	54,6	99,2
Sanoat uchun maxsus bo'lmagan mashinalar va ularning detallari	29,4	66,2
Elektr mashinalari, apparatlar, asboblari va ularning ehtiyot qismlari	6,7	113,8
Metallarni qayta ishlash mashinalari	6,2	99,0
<b>Turli xil tayyor buyumlar</b>		
Blokli binolar, suv o'tkazish, kanalizatsiya isitish va yoritish uskunolari uchun armatura va mahkamlash moslamalari	6,1	93,1
Har xil tayyor buyumlar	5,6	180,2
Maxsus, ilmiy va nazorat asboblari va apparatlari	3,2	87,0
Poyabzal	1,0	115,0
Mebel va uning qismlari, yotarjoy buyumlari, matraslar va mebel uchun tirgaklar, yostiqlar va shunga o'xshash mahsulotlar	0,6	53,2
<b>Xizmatlar</b>		
Transport xizmatlari	0,8	62,3

Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar importi hajmlarining ko'payishiga, Sabzavotlar va mevalar mahsulotlari (3,3 martaga), Go'sht va go'sht (2,7 martaga) importining ko'payishiga ta'sir qilgan.

Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar importi ko'payishiga esa, birlamchi shakldagi bo'lmagan plastmassalar (2,3 marga) hamda tibbiyot va farmatsevtika mahsulotlari (24,1 %ga) importining ko'payganligi bevosita ta'sir etgan.

MDH  
VA BOSHQA  
XORIJIY  
DAVLATLARDAN  
TOVAR  
VA XIZMATLAR  
IMPORTI  
HAJMLARI  
DINAMIKASI  
(yanvar- iyun,  
mln. AQSh  
dollari,  
ulushi % da)



Hisobot davri yakunlariga ko'ra, import bo'yicha hamkor davlatlar orasida Xitoy Xalq Respublikasi umumiy import hajmida 16,3 % ulushi bilan Rossiya Federatsiyasini (14,8 %) ortda qoldirgan holda, birinchi o'rinni egalladi.



	Davlatlar	Mln. AQSH dollari		O'zgarish sur'ati, % da		O'rni	
		2020- y.	2021- y.	2020- y.	2021- y.	2020- y.	2021- y.
<b>TOVAR VA XIZMATLAR IMPORTIDAGI YIGIRMATA YIRIK HAMKOR DAVLATLAR (yanvar- iyun)</b>	Xitoy Xalq Respublikasi	130,4	100,6	92,3	77,1	1	1
	Rossiya Federatsiyai	74,2	91,0	90,9	122,7	2	2
	Qozog'iston	46,9	76,9	65,3	164,0	4	3
	Turkiya	49,8	57,3	65,4	115,0	3	4
	Yaponiya	37,2	40,2	110,4	108,1	5	5
	Ukraina	12,0	28,7	145,6	2,4 m.	10	6
	Germaniya	14,1	20,4	29,5	145,4	8	7
	Sloveniya	17,8	19,1	2,6 m.	107,4	6	8
	Hindiston	7,1	16,3	65,0	2,3 m.	15	9
	Eron	8,6	13,6	98,4	158,6	13	10
	Vengrya	12,3	13,4	2,1 m.	109,0	9	11
	Latviya	14,8	12,2	58,2	82,4	7	12
	Litva	11,1	11,1	118,8	100,5	11	13
	Turkmaniston	6,6	10,1	2,2 m.	152,3	17	14
	Gruziya	9,1	10,0	5,3 m.	109,7	12	15
	Koreya Respublikasi	6,4	7,5	29,7	116,0	18	16
	Bangladesh	5,5	7,1	106,1	129,5	19	17
	Tayland	3,4	5,5	8,4 m.	160,3	24	18
	Niderlandiya	6,8	5,3	87,3	78,1	16	19
	AQSH	1,4	5,2	44,4	3,7 m.	29	20

VILOYAT  
IMPORTIDA  
ASOSIY  
HAMKOR  
DAVLATLAR-  
NING ULUSHI  
(2021- yil  
yanvar- iyun,  
%da)

2021- yil yanvar-iyun oylari yakuni bo'yicha Samarqand viloyati tomonidan 71 davlat bilan tovarlar va xizmatlar importi amalga oshirildi.



Yetti yirik hamkor davlatlar (Xitoy Xalq Respublikasi, Rossiya Federatsiyasi, Qozog'iston, Turkiya, Yaponiya, Ukraina va Germaniya) jami importning 67,5 %ni, hajmi 415,1 mln. AQSh dollarini tashkil etadi.

Mamlakatdagi sarmoyaviy muhit yaxshilangani sari va ushbu sohada amalga oshirilgan islohotlar natijasida mashina va uskunalar, shuningdek, ularning qismlari importining o'sishi tabiiydir. Shunday qilib, Xitoy, Rossiya va Turkiya tomonidan kiritilgan katta hajmdagi investitsiyalar natijasida, mahsulotlar importi hajmida ushbu mamlakatlarning yuqori ulushi saqlanib qolmoqda.



**SAMARQAND  
VILOYATI  
SHAHAR VA  
TUMANLARIDA  
AMALGA  
OSHIRILGAN  
IMPORT HAJMI  
(yanvar- iyun,  
mln. AQSh  
dollari)**

Hudud nomi	2020- yil yanvar- iyun	2021- yil yanvar- iyun	Jamiga nisbatan ulushi, %da	o'sish sur'ati, %da
<b>Samarqand viloyati</b>	<b>523,5</b>	<b>615,4</b>	<b>100</b>	<b>117,6</b>
<i>Shaharlar</i>				
Samarqand	276,8	326,3	53,0	117,9
Kattaqo'rg'on	4,9	8,2	1,3	167,7
<i>tumanlar</i>				
Bulung'ur	5,6	3,6	0,6	65,0
Jomboy	47,7	59,5	9,7	124,7
Ishtixon	3,4	2,9	0,5	84,7
Kattaqo'rg'on	11,4	4,6	0,8	40,8
Narpay	5,2	2,2	0,4	42,8
Nurobod	18,3	18,2	3,0	99,4
Oqdaryo	10,3	10,7	1,7	103,7
Payariq	1,3	2,7	0,4	2,1 m.
Pastdarg'om	13,5	12,1	2,0	90,1
Paxtachi	3,3	7,8	1,3	2,4 m.
Samarqand	36,2	58,5	9,5	161,3
Toyloq	33,5	50,3	8,2	105,2
Urgut	49,6	45,2	7,4	91,1
Qo'shrabot	1,7	1,3	0,2	80,9

Jami qurilish materiallari importi 20,5 mln. AQSH dollar. Jami importdagi ulushi – 3,3 %



Qurilish materiallari importi, asosan yurtimizda olib borilayotgan bunyodkorlik, keng ko'lamdagi qurilish-rekonstruksiya ishlarini amalga oshirilishiga qaratilmoqda.

**QURILISH  
MATERIALLARI  
IMPORTI  
DINAMIKASI**  
(yanvar- iyun,  
mln. AQSh  
dollari)

Qurilish materiallari	2019- y.	2020- y.	2021- y.
Yog'och va yog'och mahsulotlari	15,1	11,3	10,7
Shisha va shisha buyumlar	1,3	1,6	1,9
Asbest	8,0	0,6	1,5
Sement	1,5	0,3	1,1

Shu o'rinda ta'kidlash lozimki, davlatimiz hamda viloyatimiz tomonidan qurilish mahsulotlari importi o'rnini bosuvchi tovar va mahsulotlarni ishlab chiqarish hamda ichki bozorni sifatli va arzon qurilish materiallari bilan ta'minlash bo'yicha bir qator islohotlar amalga oshirilmoqda.

**Tashqi iqtisodiy faoliyat  
va savdo statistikasi bo'limi**  
Tel.:66-230-45-23